

AQSH HAMDA JANUBIY KOREYA MAMLAKATLARIDA MAKTABAGCHA TA'LIM TIZIMI

Ergashova Sunbula

Magistr Shahrizabz davlat pedagogika instituti Maktabgacha talim yo'nalishi

ergashovasunbula2208@gmail.com

+998976347420

Annotatsiya Ushbu maqolada rivojlangan davlatlar qadoriga kiradigan AQSh hamda Janubiy Koreya davlatlari maktabgacha ta'lim tizimi yoritib beriladi. Maktabgacha ta'lim tizimi tashkil etilishi, hamda undagi qulayliklar haqida so'z yuritiladi. Maktabgacha ta'lim tizimi bu jamiyat davlat kelajagi bo'lmish kelajak tayanchlari tarbiyalash ilk bo'g'ini hisoblanib, yuqoridagi rivojlangan mamlakatlar tajribalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *Kinder garde, xususiy yoki davlat bog'chalari, AQSh, Janubiy Koreya, maktabgacha ta'lim tizimi, bolalar pedagogikasi, fasilitator.*

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'limni milliy taraqqiyotning muhim poydevori deb biladi, bolalar kelajagi va mamlakat rivoji uchun maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish, uni modernizatsiya qilish, qamrovni oshirish, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilari malakasini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni amalga oshirgan, tizimni "Ta'limning boshlang'ich qismi, kelajakning tayanchi" deb hisoblaydi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlanishi kelajakda ularning maktabga tayyorligi, hayotiy muvaffaqiyati va mamlakatning innovatsion salohiyatini belgilaydi.

Amerikada Qo'shma shtatlarida bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadi.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadi. Lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. uch yoshdan 5 yoshgacha xususiy yoki davlat bog'chalarida foydalanish mumkin. Lekin bolalar bog'chalari juda kichik va kam rivojlangan hisoblanib, bolalarda yagona bir dastur orqali ta'lim tarbiyaga o'rgatilmas ekan. Qo'shma shtatlarda bolalajonlar uchun kerakli jihozlar hamda kunlik oziq-ovqatlarni o'z ota-onalari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga olib boriladi. 5 yoshdan boshlab "Kinder garde" deb nomlanuvchi tayyorlov muassasalariga ta'lim boshlanadi. AQShda maktabgacha ta'lim jarayoni o'yin orqali bola erkin qo'yilgan holda tashkil etiladi. Tarbiyachilar bolajonlarga kuzatuvchi va yo'naltiruvchi –fasilitator vazifasida faoliyat olib boradi. Bolani qiziqishlaridan kelib chiqqan holda uni ma'lum bir mashg'ulotga yo'naltiradi. Bu esa bolani erkin fikrlashini rivojlantiradi.



AQSh maktabgacha ta'lim tizimining farqli jihatlari Yevropa davlatlarining ko'pchiligida 3yoshdan bolalar bog'chaga borishi majburiy AQSh da esa ixtiyoriy. AQSh da moliyalashtirish xilma xil har bir shtatda turlicha hisoblanadi. Ota-onalar to'lovlari ko'proq. Boshqa davlatlarda esa maktabgacha ta'lim tizimini davlat moliyalashtiradi. Har bir bog'cha o'zi hohlagan metodika orqali ta'lim tizimini tashkil etadi. Masalan: Montessori, Reggio Emilia, Waldorf. Maktabgacha ta'lim tizimining farqli tomoni-katta erkinlik, o'xshash tomoni esa umumiy rivojlanishga qaratilgan pedagogik yondashuv.

Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim 3-5 yoshli bolajonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, bolajonlar qat'iy tartibli rivojlangan tizim hisoblanadi. Ta'limga bo'lgan talab juda kuchli, ota-onalar juda faol bo'lib maktabgacha ta'lim majburiy emas. Shunga qaramasdan 98% bolajonlar bog'chaga qatnashadi. Shundan ham ko'rish mumkinki, ota-onalar bolajonlar kelajagi uchun ilk davrlaridan e'tibor berib qayg'urishlarini va ta'limga juda kata e'tibor berishganini. Ota-onalar bilan hamkorlik faol yo'lga qo'yilgan. Kognitiv rivojlanishga katta e'tibor qaratilgan, bolajonlarga 4 yoshda harflar, sonlar, oddiy ingliz tili o'rgatiladi. Bolajonlarga navbat kutish, guruhda ishlash, va tarbiyachini tinglash kabi qoidalarga o'rgatiladi. Bolalarning erta yoshidan interaktiv doska, robot o'yinchoqlar, multimediya darslar hamda IT bilan tanishtiriladi.

Har ikkala davlatda hamda bizning yurtimizdagi maktabgacha ta'limdagi o'xshashliklarni keltirib o'taman. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, davlatlarda rivojlanish sohasi bo'yicha o'xshashliklar mavjud. Ota-onalar bilan hamkorlik deyarli barcha davlatlarda yo'lga qo'yilgan.

Xulosa. Barcha davlatlardagi maktabgacha ta'lim tizimlarining asosiy maqsadi kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish. Erta yoshlaridan ko'p bilimlar olishlariga qaratilgan.

Bola miyasi eng tez rivojlanadigan davri 0-3 yosh. Erta rag'bat bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos yaratadi. Bola ertaroq nimani ko'p o'rganayotgan bo'lsa, o'sha yo'nalishdagi qobiliyati kuchli rivojlanadi. 3 yoshgacha olingan taassurotlar va tajribalar bola shaxsining asosi bo'ladi. Erta yoshda bola tabiiy ravishda o'rganishga tayyor va qiziquvchan bo'ladi. 0-3 yoshda noto'g'ri yoki yetarli bo'lmagan tarbiya keyinchalik qiyin tuzatiladi. Bolaga erta yoshdan "qaynoq muhit" kerak. Onaning ovozi – eng yaxshi stimulatsiya. Jismoniy harakat- aqliy rivojlanishning asosi. Televizor va telefon bola rivojlanishini sekinlashtiradi. Tilni o'rgatish uchun eng yaxshi davr 0-3 yosh.[1]

Foydalangan adabiyotlar

1. Masaru Ibuka. "Uchdan keyin kech". T.: "Akademnashr" 2020.
2. Sh.A. Amonashvili va boshqalar. Pedagogik izlanish. T.: "O'qituvchi" 1990.





3. J.G'. Yo'ldoshev, «Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi. T.: "O'qituvchi" 1995. 4. J.G'.
4. Yo'ldoshev "Xorijda ta'lim" T.: "O'qituvchi" 1992.
5. Xusanovich M. O. Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization //JournalNX. – 2021. – T.

Axborot manbalari:

1. www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz -Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.edu.uz-Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
4. www.academy.uz - Fanlar akademiyasi
5. www.ziyonet.uz.
6. www.google.u

